

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ZAMONAVIY PED TEXNOLOGIYALARDAN UMUMLI FOYDALANISH

Avlayeva Shaxnoza Bozorovna

O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani Istiqlol mahallasi fuqarolar yig'ini Matonat ko'chasi 8-uy Alaqarg'a qishlog'idagi 27-umumiy o'rta maktabini Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Anotatsiya:

Ushbu maqolada shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamon uchun yosh avlodni munosib ravishda tayyorlab borish, tarbiyalash, zamonaviylik tushunchasi bilan, insoniylik xususiyatlarini chambarchaslikda ular onggiga singdira olish ota-ona bilan bilan teng qatorda o'qituvchilardan ham ko'p mehnat talab qilinishi va ta'limda innovatsiyalardan ped-texnikalardan umumli foydalanish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy, pedagogik, texnologiya, insoniylik, o'qituvchi, inovatsiya, ped-texnikalari, o'smir yoshlar.

Annotation:

In this article, it is stated that it is necessary to adequately prepare the young generation for the rapidly developing era, to educate them, to inculcate the characteristics of humanity with the concept of modernity, as well as parents and teachers, and innovations in education. It is about effective use of ped-techniques.

Key words: Modern, pedagogical, technology, humanity, teacher, innovation, ped-techniques, teenagers.

Аннотация:

В данной статье утверждается, что необходимо достойно подготовить молодое поколение к бурно развивающейся эпохе, дать ему образование, привить черты человечности с концепцией современности, а также родителям и учителям, инновациям в образовании. Речь идет об эффективном использовании пед-методик.

Ключевые слова: Современность, педагогика, технологии, гуманность, учитель, инновации, педтехника, подростки.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir

Abdulla Avloniy

Kirish. Bugungi kunda ta'limning o'smir yoshidagi o'quvchilarni fanga qiziqtirish, qolaversa, ularda mavzu yuzasidan kerakli bilim, ko'nikma hamda malakalarini shakllantirish ta'limda muhim vazifalardan biridir. Xususan yuqoridagi masalaga 11 sinflar misolida yondashadigan bo'lsak, ular, odatda, o'qituvchilarga ko'p qiyinchiliklarni keltirib chiqaradigan o'quvchilar guruhi sifatida tasvirlanadi. Agar biz ularning qiziqishlari, yosh xususiyatlari bilan hisoblashmas ekanmiz, ular o'z qobig'iga o'ralib qolaveradi. Bunday muammolar kelib chiqmasligi uchun har bir pedagog o'z ustida mukammal shug'ullanmog'i hamda har bir darsga o'zini qayta-qayta tayyorlab, mavzu yuzasidan ularni qiziqtiruvchi yangiliklarni olib kirishi zarur. Zero, donishmandlardan biri muvaffaqiyatning muhim qoidasi haqida shunday deydi: "Sen har kuni xuddi tarozi pallasiga qo'yilgandek mehnat qilishing lozim. O'zingga buyurilgan ishni ortig'i bilan bajar, Shunda ortig'i bilan olasan. Bilib qo'y, muvaffaqiyatga erishishning eng mashhur usuli-tinimsiz mehnat qilmoqlikdir". Bugungi kunda ona tili darsliklaridagi mavzular ular uchun birmuncha qiyinchilik tug'dirishi tabiiy.

Ta'lim–tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari ulardan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimlar, ya'ni texnologiyalarga aylanib bormoqda. Xuddi shu kabi ta'lim-tarbiya sohasida ham so'nggi yillarda pedagogik texnologiya amal qila boshladi. Pedagogik texnologiya tushunchasi ta'lim-tarbiya amaliyotini rivojlantirish ehtiyojlari asosida kelib chiqqan, va hozirda pedagogika, psixologiya fanlarida o'z o'rniga ega bo'lgan keng ko'lamli serqirra tushunchadir. Pedagogik texnologiyada ishlab chiqarish sohalaridagi turli texnologiyalardan farqli ravishda ishlov beriladigan material o'quvchi (ta'lim oluvchi)ning aqliy, ruhiy, axloqiy sifatleri bo'lib, ularga o'qituvchi, tarbiyachi tamonidan ma'lum maqsadlarga erishish yo'lida har turli ta'sirlar o'tkaziladi. Pedagogik texnologiya tushunchasi dastlab XX asrning o'rtalarida AQSHda paydo bo'lib, 1940-50 yillar o'rtasigacha «Ta'lim texnologiyasi» deb yuritilib kelgan va bu ibora texnika vositalaridan foydalanib o'qitishga nisbatan qo'llanilgan. 50-60 yillarda programmashtirilgan ta'lim nazarda tutilgan, 70- yillarda «pedagogik



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

texnologiya» iborasi qo`llanilib u avvaldan loyihalashtirilgan va aniq belgilangan maqsadlarga erishishni kafolatlovchi o`quv jarayonini bildirgan. 1979 yilda AQSHning Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar assotsiatsiyasi tomonidan Pedagogik texnologiyani kompleks, integrativ jarayon deb asoslangan va 80- yillarning boshidan esa pedagogik texnologiya deb ta'limning kompyuterli va axborot texnologiyalarini yaratishga aytilgan. Hozirda bu tushunchaga quyidagi turli ta'riflar berilgan:

Pedagogik texnologiya – Bu o`qituvchi (tarbiyachi)ning o`qitish (tarbiya) vositalari yordamida o`quvchi (talaba)larga muayyan sharoit va ketma-ketlikda ta'sir ko`rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayondir.

Texnologiya – biror ishda, san'atda, mahoratda qo`llaniladigan usullar, yo`llar yig`indisi

Pedagogik texnologiya turlari

Pedagogik texnologiyalar uzluksiz ta'lim turlari, ta'lim sohalari hamda ayrim belgilari bo'yicha turlarga ajratiladi. Uzluksiz ta'lim turlari bo'yicha maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, tayanch ta'lim, maktabdan tashqari-qo`shimcha ta'lim, o`rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'limi pedagogik texnologiyalariga bo`linadi. Shu bilan birga, ta'lim sohalari bo'yicha ona tili, xorijiy tillar, adabiyot, ijtimoiy, tabiiy, aniq fanlar, san'at, sport, texnika, texnologiya, amaliy fanlar, kasb-hunarlar, maxsus ta'lim pedagogik texnologiyalari mavjud. Hozirda mavjud bo`lgan pedagogik texnologiyalarni bir qancha belgilariga qarab turlarga ajratiladi. Bu belgilar haqida gapirishdan oldin shuni eslatib o`tishimiz kerakki, pedagogik texnologiya doimo kompleks xarakterga ega bo`lib, u faqat bittagina omildan, metoddan, tamoildan foydalanmaydi. Ya'ni quyida keltiriladigan turlarigagina xos bo`lgan monotexnologiyalar aslida mavjud emas. Lekin har bir pedagogik texnologiyada asosiy e'tibor ta'lim jarayonining u yoki bu tomoniga qaratilishi natijasida ularni shu belgilari bo'yicha turlarga ajratiladi.

Xulosa va takliflar(Conclusion/Recommendation

Ta'kidlash joizki, o`quvchining bilim darajasi rivojlanishi bo'yicha faoliyatning mazmuni qaysi yondashuvda bo`lishidan qat'iy nazar, uning yoshxususiyatlariga hamda kelgusi rivojlanishini ta'minlovchi



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

tayyorgarlikka qo‘yiladigan talablarga mos bo‘lishi; zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlarini inobatga olishi; ularni o‘zgartirish yo‘llarini ko‘zda tutishi lozim. Ish shakllari va usullari dunyoni o‘yin asosida o‘zlashtirishning insonparvarlik g‘oyalarini amalga oshirish, jamoatchilik va oilaviy tarbiyaning hamohang uyg‘unlashuvini ta‘minlash zaruriyati bilan belgilanadi hamdakatlarning bolalar bilan birgalikda ular faoliyatini tashkil etishi davomida shaxsiy-yo‘naltirilgan munosabatlarga kirishish jarayoni ta‘minlana

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/ta-limda-zamonaviy-pedagogik-texnologiyalar>
2. <http://manzura90.zn.uz/pedagogik-texnologiya-turlari/>
3. <https://buxdu.uz/en/news/346/talim-jarayonida-zamonaviy-pedagogik-texnologiyalardan-foydalanish-usullari/>
4. <https://sciup.org/talim-jarayonida-pedagogik-texnologiyalardan-foydalanish-140292785>
5. <https://journal.bilig.uz/isepsmj/article/view/1018>
6. <https://in-academy.uz/index.php/yopa/article/download/13982/9744/10842>